

**ZOOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.52.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

SHERMATOV MALIKJON RAXMATJONOVICH

**FARG‘ONA VODIYSI AGROEKOTIZIMLARI TANGACHAQANOTLI
HASHAROTLARI (INSECTA, LEPIDOPTERA)**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of doctor of science (DSc)

Shermatov Malikjon Raxmatjonovich

Farg‘ona vodiysi agroekotizimlari tangachaqanotli hasharotlari (Insecta, Lepidoptera) 3

Шерматов Маликжон Рахматжонович

Чешуекрылые насекомые (Insecta, Lepidoptera) агроэкосистем Ферганской долины 27

Shermatov Malikjon Rakhmatjonovich

Lepidopterans (Insecta, Lepidoptera) of agroecosystems of the Fergana Valley 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 57

**ZOOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.52.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

SHERMATOV MALIKJON RAXMATJONOVICH

**FARG‘ONA VODIYSI AGROEKOTIZIMLARI TANGACHAQANOTLI
HASHAROTLARI (INSECTA, LEPIDOPTERA)**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Biologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/B187raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.izoology.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy konsultant:

Zokirov Islomjon Ilhomjonovich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Medetov Maxsetbay Japakovich
biologiya fanlari doktori, professor

Abdullayev Ikrom Iskandarovich
biologiya fanlari doktori, professor

Bekchanov Xudaybergan O'rinovich
biologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Zoologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.B.52.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 10-oktabr kuni soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100053, Toshkent shahri, Bog'ishamol ko'chasi, 232 b -uy. Zoologiya instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 289-04-65, Faks: (+99871) 289-10-60; E-mail: zoology@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Zoologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 1719-AR raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100053, Toshkent shahri, Bog'ishamol ko'chasi, 232 b -uy. Tel.: (+998) 71-289-04-65.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 27-sentabr kuni tarqatildi.

(2024-yil 27-sentabrdagi № 6-raqamli reyestr bayonnomasi).



B.R. Xolmatov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, b.f.d., professor



G.S. Mirzayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, b.f.d., professor

A.E. Kuchboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d.,
professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo miqyosida kuzatilayotgan iqlim o'zgarishlari va antropogen omillar qishloq xo'jaligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, so'nggi o'n yilliklarda mamlakatlararo tovarlar va insonlar harakatining uch barobarga ko'payishi natijasida qishloq xo'jalik ekinlari zararkunandalarining tarqalishi yanada jadallashdi. Dunyo bo'yicha har yili o'simlik zararkunandalari va kasalliklari tufayli oziq-ovqat ekinlarining 40% gacha qismi nobud bo'lmoqda. Shundan kelib chiqib, agroekotizimlar tangachaqaqotli hasharotlar faunasini aniqlash, biologiyasi va ekologiyasini asoslash, zararkunanda turlarning tarqalishi hamda iqtisodiy zararini kamaytirishga qaratilgan samarali kurash chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda tangachaqaqotli hasharotlarning faunasi, tarqalishini o'rganish, global iqlim o'zgarishlari va antropogen omillarning lepidopterofaunaga ta'sirini baholash, zararli turlarning sonini boshqarish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, jumladan turli agroekotizimlar strukturasi hamda entomofaunasi tarkibida, shuningdek, ozuqa zanjirida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni kompleks o'rganish, fauna uchun yangi turlarning agroekotizimlardagi o'rnini izohlash, zararkunanda turlar populyatsiya zichligining mavsumiy hamda ko'p yillik o'zgarishlarini bashorat qilish texnologiyalarini yaratishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda qishloq xo'jalik sohasini rivojlantirish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat va sanoat mahsulotlari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'tgan yaqin yillar ichida ushbu sohaga ixtisoslashgan ko'plab yangi fermer hamda klaster xo'jaliklari tashkil etildi. Bu borada "O'zbekiston – 2030" strategiyasida¹ «...qo'shimcha 300 ming gektar yer maydonini zamonaviy suv tejaydigan texnologiyalarni qo'llash orqali o'zlashtirish va mazkur yerlarda ozuqabop, dorivor, moyli, dukkakli, sholi, g'alla, sabzavot, poliz ekinlari ekish, intensiv bog' va uzumzorlar tashkil etish» kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, qishloq xo'jalik ekinlariga zarar yetkazuvchi tangachaqaqotli hasharotlar faunasini kompleks tadqiq etish, ularning tarqalishi, biologiyasi va ekologik xususiyatlarini ochib berish, shuningdek ularga qarshi kurash usullarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 9-noyabrdagi "O'simliklarni himoya qilish to'g'risida"gi 877-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-maydagi "Respublika hududlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4709-son, 2020-yil 13-oktyabrdagi "O'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4861-son Qarorlari hamda 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni.

qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi². Tangachaqaqotli hasharotlarning agroekotizimlarda tarqalishi, xilma-xilligi, ekologiyasi, zararkunanda turlarga qarshi kurash usullari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Natural History Museum Los Angeles, Museum of Comparative Zoology Harvard University (AQSh), Department of Entomology, Purdue University (AQSh), Departament of entomology, Natural History Museum London (Angliya), University of Copenhagen Zoological Museum (Daniya), German Entomological Institute (Germaniya), Institute of Entomology Biological Center CAS (Chexiya), Indian Agricultural Research Institute (Hindiston), Butunrossiya o'simliklarni himoya qilish ilmiy-tadqiqot instituti (Rossiya), Zoologiya instituti (Xitoy), Zoologiya instituti (Rossiya), Zoologiya instituti (Ukraina), Zoologiya instituti (Qozog'iston) da olib borilmoqda.

Tangachaqaqotli hasharotlarning tarqalishi, sistematikasi, xilma-xilligi, faunasi, ekologiyasi va xo'jalik ahamiyatiga oid olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi natijalar olingan: jumladan tangachaqaqotli hasharotlarning biologik xilma-xilligi, filogeniyasi va sistematikasi aniqlangan, asosiy guruhlarining evolyutsion mexanizmlari ochib berilgan (Natural History Museum Los Angeles, University of Copenhagen Zoological Museum, Zoologiya instituti Ukraina), hasharotlar na'munalarini skanerlash uslubida (Departament of entomology, Natural History Museum London) hamda gen injeneriyasi uslubida tadqiq etishning zamonaviy texnologiyalari ishlab chiqilgan (German Entomological Institute), hasharotlarning fiziologiyasi o'rganilib, populyatsiya dinamikasini oldindan bashorat qilish uslublari va ekologik jarayonlarning matematik modellashirish mexanizmlari yaratilgan (Entomologiya instituti, Chexiya).

Dunyoda tangachaqaqotli hasharotlarining faunasi, tarqalishi, biologiyasi va ekologik xususiyatlari bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda: tangachaqaqotli hasharotlarning molekulyar-genetik bazasini yaratish, global iqlim o'zgarishlari va antropogen omillarning lepidopterofaunaga ta'sirini asoslash, zararli turlar populyatsiya dinamikasini

²Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi <https://www.nhm.ac.uk>; <https://snm.ku.dk/english/>; <https://www.entu.cas.cz/en/>; <http://vizrspb.ru>; <http://english.ioz.cas.cn>; https://www.zin.ru/scientific_results.html; <https://www.izan.kiev.ua/>; <http://zool.kz>; <https://www.iari.res.in/> va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

oldindan bashorat qilish, ularning sonini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tangachaqaqnotli hasharotlarning faunasi, tur tarkibi, bioekologiyasi va muhim turlarining tarqalishiga oid ma'lumotlar horijiy mamlakatlar olimlari A.G.Butler (1886), G.Hampson (1907), Y.Tikach (1959), M.Hreblay (1963-2000), M.J.Scoble (1992), A.R.Pittaway (1993-2023), N.P.Kristensen (1993), J.W.Brown (2005), A.M.Solis (2007), G.S.Robinson (2009), EJ van Nieukerken (1986, 2003, 2011, 2016, 2023) va boshqalar tomonidan keltirilgan.

MDH mamlakatlari miqyosidagi lepidopterologik tadqiqotlarning tahlillari S.N.Alferaki (1877), Y.L.Shetkin (1960), M.A.Daricheva (1967), M.I.Falkovich (1979), V.I.Kuznetsov (2001), M.A.Klepikov (2008), A.Y.Matov (2008), P.Y.Gorbunov (2011), A.P.Burnasheva (2011), A.Y.Barma (2015), K.S.Artoxin va boshq. (2017), S.Y.Sinev (2017), S.K.Korb (2018) va boshqalar tomonidan olib borilgan bo'lib, mualliflar turli hududlar tangachaqaqnotli hasharotlarining faunistik tahlili va ekologiyasi, shuningdek qishloq xo'jaligi ekinlariga zarar keltirishi bilan bog'liq masalalarga e'tibor qaratishgan.

O'zbekiston entomofaunasining tangachaqaqnotli hasharotlar faunasini o'rganishga oid alohida tadqiqotlar D.A.Azimov va boshq. (1993), M.Sh.Raximov (1997), X.U.Bekchanov (1998, 2023), A.X.Yusupov (2016), M.X.Bekchanov (2019), M.X.Bekchanova (2022) lar tomonidan olib borilgan. Zararkunanda tangachaqaqnotlilarni keng ko'lamli o'rganish va ularga qarshi kurash choralari B.P.Adashkevich (1983), M.I.Rashidov (1985), F.X.Aripova (1993), Sh.T.Xo'jayev (2014), A.Sh.Hamrayev (1992, 2014), Z.Yu Axmedova (2009), I.I.Zokirov (2019), L.A.Abduvosikova (2020)lar tomonidan bayon etilgan. Tangachaqaqnotli hasharotlarning alohida turlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar natijalari Sh.Astanakulov (1974), R.A.Sultanov (1985), S.S.Pak (1985), M.R.Shermatov (2010), S.A.Mirzayeva (2010), D.A.Obidjonov (2012), F.E.Yuldashev (2017) lar tomonidan keltirilgan.

Biroq, mazkur tadqiqot ishlari O'zbekistonda amalga oshirilgan bo'lsada, Farg'ona vodiysining tangachaqaqnotli hasharotlari haqida to'liq ma'lumot bera olmaydi. Shunga ko'ra, Farg'ona vodiysi agroekotizimlari tangachaqaqnotli hasharotlarining tur tarkibini aniqlash, biologiyasi va ekologiyasini asoslash, zararkunanda turlarning tarqalishi va zarar keltirish xususiyatlarini izohlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Farg'ona vodiysi o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va bioxilma-xillikni saqlash muammolari" (2020-2025) ilmiy tadqiqot mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Farg'ona vodiysi agroekotizimlari tangachaqaqnotli hasharotlarining zamonaviy tur tarkibini aniqlash, tarqalish areallarini belgilash, bioekologik xususiyatlari va xo'jalik ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tangachaqanotli hasharotlar faunasining tur tarkibini aniqlash va taksonomik tahlil qilish;

tangachaqanotli hasharotlarni agroekotizimlar bo'ylab taqsimlanishi, xilma-xillik indeksleri, dominant va kam sonli turlar ulushlarini ekologik hamda matematik-statistik tahlil etish;

tangachaqanotli hasharotlarni zoogeografik hududlar va agrolandshaft yaruslari bo'yicha tarqalish areallarini belgilash hamda arealining kengayib borishida muhit omillarining o'rni va ahamiyatini ochib berish;

tangachaqanotli hasharotlarning rivojlanish sikllari, fenologiyasi va trofik aloqalarini asoslash;

ozuqa o'simligini tangachaqanotli hasharotlarning rivojlanishi hamda morfologik xususiyatlariga ta'sirini matematik-statistik tahlil etish va biologik asoslarini ishlab chiqish;

dominant turlarning madaniy ekinlarni biozararlashdagi ishtiroki va uning iqtisodiy oqibatlarini baholash, populyatsiya zichligini monitoring qilish uslublari, shuningdek, zararkunanda turlarga qarshi kurash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida Farg'ona vodiysi agroekotizimlarining tangachaqanotli hasharotlari olingan.

Tadqiqotning predmeti agroekotizimlar tangachaqanotli hasharotlarining faunasi, tarqalish areallari, bioekologik xususiyatlari va xo'jalik ahamiyati hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada taksonomik, morfologik, faunistik, entomologik, ekologik va matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Farg'ona vodiysi agroekotizimlarida tarqalgan tangachaqanotli hasharotlarning tur tarkibi tahlil qilinib, 15 ta katta oila, 25 oila, 116 avlodga mansub 158 turdan iboratligi aniqlangan;

tangachaqanotli hasharotlarning 12 ta oila 46 avlodga mansub 55 ta turlari tadqiqot hududida ilk marta aniqlangan va ular orasida O'zbekiston hududida ilgari qayd etilmagan 6 ta oila 18 ta avlodga mansub 19 ta turlar hamda Markaziy Osiyo entomofaunasi uchun 1 ta oila 2 ta avlodga mansub 2 ta tur aniqlangan;

tangachaqanotli hasharotlarning ozuqa spektri, agrotsenozlarda taqsimlanish xususiyatlari, xilma-xillik indeksi, dominant hamda kam sonli turlarining ulushlari ekologik-faunistik va matematik-statistik asoslangan;

tangachaqanotli hasharotlarni Farg'ona vodiysining zoogeografik hududlari va agrolandshaft yaruslari bo'yicha tarqalish areallari aniqlanib, xaritalari ishlab chiqilgan;

xavfli zararkunanda tut parvonasi (*Glyphodes pyloalis*) misolida adventiv turlarning mintqa entomofaunasiga kirib kelishida abiotik, biotik va antropogen omillarning o'rni tahlil etilib, mazkur jarayonga global iqlim o'zgarishlarining ta'siri matematik-statistik hamda ekologik tahlillar asosida ochib berilgan;

tangachaqanotli hasharotlarning hayot sikliga ko'ra 3 ta, imagolik bosqichidagi uchish davrlariga ko'ra 6 ta, qurtlarining qishlash xususiyatlariga ko'ra 7 ta, ozuqaga ixtisoslashuvining kenglik darajasiga ko'ra 3 ta, o'simliklarning hayotiy shakllari bilan aloqasiga ko'ra 6 ta, ozuqa o'simliklari organlariga trofik ixtisoslashuviga ko'ra 11 ta ekologik guruhlar klassifikatsiya qilingan;

fitofag zararkunanda turlarning ozuqa o'simliklarini tanlash xususiyatlari turli xil ozuqa o'simliklarini tangachaqanotli hasharotlarning ko'payish sur'atiga hamda morfologik o'zgaruvchanligiga ta'sirini aniqlashga oid tajribalar va matematik-statistik tahlillar asosida ochib berilgan;

dominant turlarning madaniy ekinlarni biozararlashdagi ishtiroki va uning iqtisodiy oqibatlari baholangan, zararkunanda turlarning aniqlagichi, miqdor zichliklari monitoringi hamda ularga qarshi kurash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

zararkunanda tangachaqanotlilarning ozuqa spektri tahlil etilib, tadqiqot hududida asosiy qishloq xo'jalik ekinlari ro'yxatiga kiritilgan 60 tur madaniy o'simliklarda uchrash darajalari aniqlangan;

agrotsenozlarda tangachaqanotli hasharotlarning xilma-xillik indeksi hamda dominant turlarining ulushi (indeksi) ni aniqlash me'zoni ishlab chiqilgan;

Farg'ona vodiysining agrolandshaft yaruslari va tiplari tavsiflanib, tangachaqanotli hasharotlarining yaruslar bo'yicha tarqalish xaritasi ishlab chiqilgan;

xavfli zararkunanda tut parvonasi (*Glyphodes pyloalis*) ning abiotik, biotik va antropogen omillar ta'sirida O'zbekistonga, shu jumladan, Farg'ona vodiysiga kirib kelishi, global iqlim o'zgarishlari sharoitida tarqalish xususiyatlari tahlil etilib, tarqalish muddatlari, yo'nalishlari va tezligi ifodalangan haritalari ishlab chiqilgan hamda shu asosda kelgusida adventiv zararkunandalarning mintaqamizga kirib kelishi va tarqalishiga sabab bo'luvchi omillar bashorat qilingan;

turli xil ozuqa o'simliklarining tangachaqanotli hasharotlarning biologiyasi, morfologiyasi va ko'payish sur'atlariga ta'sirini matematik-statistik tahlil etish asosida fitofag zararkunanda turlarning ozuqa o'simliklarini tanlashi va zarar keltirish xususiyatlarini o'rganish uslublari ishlab chiqilgan;

tangachaqanotli hasharotlarning o'ta xavfli, xavfli va fakultativ xavfli bo'lgan turlari guruhlanib, ularning o'simlikni zararlash darajasini aniqlash mezonlari ishlab chiqilgan;

zararkunanda turlarning aniqlagichi, miqdor zichliklarini monitoring qilish uslublari hamda ularga qarshi kurash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda entomologiyaning klassik va zamonaviy usullaridan foydalanilganligi, ilmiy farazlar, keng ko'lamli tahlil natijalarining nazariy ma'lumotlarga mosligi, ularning turli xalqaro va milliy nashrlarda e'lon qilinganligi, tangachaqanotli hasharotlarning populyatsiya ko'rsatkichlari, rivojlanish xususiyatlari va tarqalish suratlarini matematik-statistik uslublar asosida tahlil etilganligi, tadqiqot natijalarining "Sphingidae Taxonomic Inventory" (<http://sphingidae.myspecies.info/>) xalqaro bazasida o'z aksini

topganligi, shuningdek amaliy natijalarning vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi hamda amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Farg‘ona vodiysi agroekotizimlarida tarqalgan tangachaqanotli hasharotlar faunasining hozirgi zamonaviy tur tarkibining aniqlanganligi, taksonomik tahlil qilinganligi, lepidopterofaunaning shakllanishi, zoogeografik hududlar va agrolandshaft yaruslari bo‘yicha tarqalish areallari, muhim turlarning biologiyasi, ekologiyasi va zarar keltirish xususiyatlari, ilk bor aniqlangan turlarning agroekotizimlarda tutgan o‘rni asoslab berilganligi hamda agrobiotsenozlarda fitofaglarining o‘simlikdan foydalanish xususiyatlari tahlil etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati entomotsenozlarda dominant hamda kam sonli turlar ulushini baholash, fitofag turlarni ozuqa o‘simliklarini tanlash strategiyasi va zarar keltirish xususiyatlarini aniqlash, adventiv turlarning tarqalish yo‘nalishlari va ko‘payish suratlarini belgilash, global iqlim o‘zgarishlarini tangachaqanotli hasharotlar populyatsiyalariga ta‘sirini baholash, shuningdek, dominant turlarning o‘simlikni zararlash darajasini aniqlash mezonlari hamda zararkunanda turlarning miqdor zichligini monitoring qilish uslublari ishlab chiqilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Farg‘ona vodiysi agroekotizimlari tangachaqanotli hasharotlari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Farg‘ona vodiysi agroekotizimlarida qishloq xo‘jalik ekinlari bilan trofik aloqaga ega bo‘lgan tangachaqanotli hasharotlarning 15 ta oila, 43 ta avlod, 51 ta turga mansub 108 nusxa hasharot namunalari respublikada yetakchi bo‘lgan Zoologiya instituti “Zoologiya kolleksiyasi” noyob obyektiga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024 yil 1 martdagi 4/1255-496-son ma‘lumotnomasi). Natijada, namunalar hasharotlar kolleksiyasi fondini boyitgan va turlar xilma-xilligini aniqlash hamda elektron ma‘lumotlar bazasini yaratish imkonini bergan;

molekulyar-genetik tadqiqotlar natijasida tadqiqot hududidan ilk bor qayd etilgan *Nomophila noctuella*, *Hellula undalis*, *Euchromius ocella* turlarining mitoxondrial COI nukleotidlar ketma-ketligi bo‘yicha ma‘lumotlar Biotexnologik axborotlar milliy markazi (NCBI) bazasiga joylashtirilgan (Biotexnologik axborotlar milliy markazi, blast.ncbi.nlm.nih.gov ning 2024 yil 15 martdagi ma‘lumotnomasi). Natijada, *Nomophila noctuella* – PP486257, *Hellula undalis* – PP486258, *Euchromius ocella* – PP486259 identifikatsiya raqamlari olingan va ular xalqaro miqyosda Crambidae oilasi vakillarining tarqalish areallarini molekulyar darajada aniqlash imkonini bergan;

dominant zararkunanda turlarning o‘simlikni zararlash darajasini aniqlash mezonlari, zararkunanda turlarning miqdor zichligini monitoring qilish va ularga qarshi kurash bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar hamda “Qishloq xo‘jalik ekinlarining zararkunanda tangachaqanotli hasharotlari aniqlagichi” nomli amaliy tavsiyanoma O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi amaliyotiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi O‘simliklar karantini va

himoyasi agentligining 2024 yil 4 apreldagi 2-8/1419-son ma'lumotnomasi). Natijada, qishloq xo'jalik ekinlarida zararkunanda tangachaqaqnotli hasharotlarning rivojlanishi va tarqalishini monitoring qilish hamda ularga qarshi kurash tadbirlarini takomillashtirish imkonini bergan.

Farg'ona vodiysining agrolandshaft yaruslari xaritasi, tangachaqaqnotli hasharotlarni yaruslar bo'yicha taqsimlanish xususiyatlari, shuningdek, tuproqda hayot kechiradigan yoki qishlab chiqadigan zararkunanda tangachaqaqnotlilarni dala maydonidagi miqdor zichligi va taqsimlanishini aniqlash hamda mazkur jarayonga GAT texnologiyalarini qo'llash uslublari yuzasidan ishlab chiqilgan tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazi amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2024 yil 28 martdagi 05/05-04-110-son ma'lumotnomasi). Natijada, ekin maydonlarida zararkunanda tangachaqaqnotlilarni tezkor identifikatsiya qilish, tarqalish o'choqlari va chegaralarini aniq belgilash, ko'p yillik tarqalish xususiyatlarini tahlil etish hamda qarshi kurash tadbirlarining samaradorligini oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 17 ta, jumladan, 10 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarini nashr etish. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 44 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 23 ta maqola, jumladan 19 ta respublika va 4 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, olti bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 198 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, ilmiy tadqiqot ishlarning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, ilmiy yangilik va ilmiy tadqiqotning amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O'zbekistonda tangachaqaqnotli hasharotlarning o'rganilish holati”** deb nomlangan birinchi bobida tangachaqaqnotli hasharotlarning faunasi, tarqalishi, ekologiyasi, zararkunanda turlarga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish borasida ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar natijalarining tahlillari keltirilgan. Tahlillar natijasida Farg'ona vodiysi agroekotizimlari tangachaqaqnotli hasharotlari kompleks tarzda faunistik tadqiq etilmaganligi qayd etilgan.

Dissertatsiyaning “Farg‘ona vodiysi agroekotizimlari tangachaqanotli hasharotlarini o‘rganish uslublari va materiali” deb nomlangan ikkinchi bobi oltita bo‘limdan iborat bo‘lib, unda tadqiqot olib borilgan hududlar va ularning koordinatalari, namunalarni yig‘ish va qayta ishlash uslublari, turlarning identifikatsiyasi, xilma-xillik va dominantlik indekslarini aniqlash, tarqalish areallarini tahlil etish, shuningdek, tangachaqanotli hasharotlar morfologik o‘zgaruvchanligi va rivojlanish xususiyatlariga ozuqa o‘simligining ta‘sirini baholash hamda zararkunanda turlar miqdor zichligini monitoring qilish uslublari yoritib berilgan. Tadqiqot ishlari 2012-2023 yillar davomida Farg‘ona vodiysi agroekotizimlarida olib borilgan. Tangachaqanotli hasharotlar namunalari Farg‘ona, Andijon, Namangan viloyati hududlaridagi fermer hamda tomorqa xo‘jaliklaridan yig‘ilgan (1-rasm).



1-rasm. Tadqiqot olib borilgan hududlar

Tadqiqot ishlari davomida tangachaqanotli hasharotlarning 7 mingdan ortiq namunalari olinib, o‘rganilgan. Namunalarni qayta ishlash, kolleksiya tayyorlash va ularni saqlash jarayonida V.B.Golub (2012), M.I.Shapovalov (2021)lar tomonidan ishlab chiqilgan uslublar va tavsiyalardan foydalanilgan. Qiyosiy morfologik tahlillarda tangachaqanotli hasharotlarning aniqlagichlari, xalqaro elektron kataloglar va kapalaklarning atlaslaridan foydalanilgan (Y.Tikach, 1959; M.I.Falkovich, 1989; N.N.Tretyakov, I.M.Mityushev, 2010).


Tangachaqanotli hasharotlar populyatsiyalarining xilma-xillik ko‘rsatkichlari G.F.Lakin (1990), R.M.Gorodnichev (2019) bo‘yicha Simpsonning dominantlik ($V = \sum (n_i / N)^2$) va xilma-xillik ($D = 1/C$) indeksi, Jivotovskiy xilma-xillik indeksini ($\mu = (\sum \sqrt{p_i})^2$) aniqlash formulalari yordamida hisoblangan. Xilma-xillik indekslarini qiyosiy tahlil etishda klaster uslubidan ($D(A, B) = \sqrt{(x_A - x_B)^2 + (y_A - y_B)^2}$)

foydalanilgan. Zoogeografik tahlillar F.Darlington (1966), L.Zenkevich (1968), O.Krijanovski (2002) kabi mualliflarning nazariyalari, F.Xolboyev, D.Azimov, E.Shernazarovlarning tavsiyalari (2018) hamda Markaziy Osiyo mintaqalarida tangachaqaqnotli hasharotlarni tarqalishini o'rgangan olimlarning tadqiqot uslublari asosida amalga oshirilgan (Gorbunov, 2011; Korb va b., 2016; Bekchanov, 2019). Tangachaqaqnotlilar faunasining o'xshashlik darajasi Jakkar ($K_j = C/(A+B-C)$) va Sorensen koefitsiyenti ($K_s = 2C/(A+B)$) bo'yicha qiyosiy tahlil etilgan. Iqlim o'zgarishlarining statistik tahlillari gidrometeorologiya markazlarining 2001-2022-yillarga oid iqlim ma'lumotlari asosida korrelyatsion hisoblash uslubida ($r = ((\sum xy - (\sum x \cdot \sum y)/n) / \sqrt{C_x \cdot C_y})$) amalga oshirilgan. Turli ozuqa o'simligida oziqlanib voyaga yetgan *Mythimna unipuncta* 6-yosh qurtlari hamda ulardan rivojlangan kapalaklar morfologik ko'rsatkichlarining o'ziga xosligi Styudent tenglamasi bo'yicha ($t_{fakt} = (\bar{x}_2 - \bar{x}_1) / \sqrt{(S_{x_1}^2 + (S_{x_2})^2)}$), o'zgaruvchanligi esa, variatsiya koefitsiyentini aniqlash formulasi ($CV = (S_x / \bar{x}) \cdot 100\%$) yordamida qiyosiy tahlil etilgan. Zararkunanda tangachaqaqnotlilarning dala maydonida fazoviy taqsimlanish xususiyatlari Morisita indeksi ($I_M = n \cdot ((\sum x_i^2 - \sum x_i) / (\sum x_i)^2 - \sum x_i))$) yordamida aniqlangan.

Dissertatsiya ishining **“Farg‘ona vodiysi agroekotizimlari tangachaqaqnotli hasharotlarining faunistik tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobi uchta bo‘limdan iborat bo‘lib, unda tangachaqaqnotli hasharotlar faunasining tur tarkibi va taksonomik tahlili, agroekotizimlarda taqsimlanish xususiyatlari, tangachaqaqnotli hasharotlar populyatsiyalarining xilma-xillik ko'rsatkichlari yoritib berilgan. Farg‘ona vodiysi agroekotizimlaridan qishloq xo‘jalik ekinlari bilan trofik aloqada bo‘lgan tangachaqaqnotlilarning 15 ta katta oila, 25 oila 116 avlodga mansub 158 turi aniqlangan. Taksonomik birliklarning qiyosiy tahlillariga ko‘ra, agroekotizimlarda Noctuidae oilasi vakillari yetakchilik qiladi. Jumladan, mazkur oilaga mansub 58 ta turlar lepidopterofaunaning 36,7% ni tashkil etadi. Turlar xilma-xilligiga muvofiq avlodlarning soni ham yuqori (36 ta) bo‘lib, faunadagi ulushi 31% ga teng. Bu borada keyingi pog‘onani Tortricidae oilasi vakillari egallaydi. Ushbu oilaning 15 ta avlodga mansub 23 ta turi agroekotizimlar oziqa zanjiridan o‘rin egallagan bo‘lib, faunadagi ulushi avlodlar bo‘yicha 12,9%, tur soni bo‘yicha 14,6% ga teng. Crambidae, Geometridae, Pyralidae oilalarining vakillari ham nisbatan keng tarqalgan turlar sirasiga kiradi. Jumladan, Crambidae oilasining 9 ta avlodiga (7,8%) mansub 15 ta turi (9,5%), Geometridae oilasining 9 ta avlodiga (7,8%) mansub 9 ta turi (5,7%), Pyralidae oilasining 7 ta avlodiga (6%) mansub 7 ta turi (4,4%) mintaqa agroekotizimlarida qayd etilgan. Erebidae, Pieridae, Gelechiidae kabi oilalar 6 tadan turga ega bo‘lib, lepidopterofaunadagi ulushlari mos holda 3,8% ga teng.

Faunistik tadqiqotlar natijasida Farg‘ona vodiysi agroekotizimlarida tangachaqaqnotli hasharotlar turkumining 12 ta oila 46 avlodiga mansub 55 ta turi ilk bor aniqlangan. Ushbu turlarning ulushi jami lepidopterofaunaga nisbatan 34,8% ni tashkil etadi. Turlarning oilalar kesimidagi taqsimoti va faunadagi ulushiga ko‘ra, Noctuidae oilasidan 16 ta (10,1%), Crambidae oilasidan 10 ta (6,3%), Pyralidae, Erebidae oilalaridan 5 tadan (3,2% dan), Sphingidae, Tortricidae oilalaridan 4 tadan (2,5% dan), Pieridae, Geometridae oilalaridan 3 tadan (1,9%

dan), Nolidae oilasidan 2 ta (1,3%), Arctiidae, Lymantriidae, Lycaenidae oilalaridan 1 tadan (0,6% dan) turlar uchraydi. Ular orasidan O'zbekiston hududida ilgari uchratilmagan 6 ta oila (Tortricidae, Pyralidae, Crambidae, Lycaenidae, Geometridae, Erebidae)ning 18 ta avlodga mansub 19 ta turi (*Pandemis cerasana*, *Aethes francillana*, *Oncocera semirubella*, *Etiella zinckenella*, *Coenochroa ablutella*, *Ancyloosis hellenica*, *Nyctegretis lineana*, *Euchromius ocella*, *Evergestis frumentalis*, *E. extimalis*, *Udea ferrugalis*, *Loxostege leuconuralis*, *Nomophila noctuella*, *Polyommatus icarus napaea*, *Phaiogramma etruscaria*, *Scopula ochraceata*, *Isturgia arenacearia*, *Grammodes stolidia*, *Dysgonia torrida*) respublikamiz entomofaunasi uchun ilk bor qayd etilgan turlar qatorida ro'yxatga kiritildi.




2-rasm. Tangachaqanotli hasharotlarni agrotsenozlarda taqsimlanish spektri
Izoh: Ranglarning diapazoni oilani agrotsenozdagi ulushini (%), raqamlar tur sonini ifodalaydi.

Shuningdek, Crambidae oilasiga mansub 2 ta tur (*Evergestis desertalis*, *Hellula undalis*) Markaziy Osiyo entomofaunasida avval qayd etilmagan.

Farg‘ona vodiysi agroekotizimlari tangachaqanotli hasharotlari asosiy qishloq xo‘jalik ekinlari ro‘yxatiga kiritilgan 20 ta oilaga mansub 60 tur madaniy o‘simliklar bilan trofik aloqaga ega ekanligi aniqlandi. Tangachaqanotlilarning tur soni bo‘yicha mevali bog‘ agrotsenozlari yuqori (76 ta), sabzavot (47 ta), ozuqa (46 ta), g‘alla (46 ta) va texnik ekinlar (42 ta) agrotsenozlari o‘rta, dukkakli ekinlar agrotsenozlari quyi (28 ta) pog‘onalarni egallaydi. Bu borada eng quyi pog‘onani moyli ekinlar hamda poliz ekinlari agrotsenozlari egallagan bo‘lib, ularda uchraydigan tur soni mos ravishda 16 ta va 15 tani tashkil etadi (2-rasm).


Alohida olingan agrobiotsenozlarda tangachaqanotli hasharotlar populyatsiyalarining xilma-xillik ko‘rsatkichlari Jivotovskiy hamda Simpson indeksleri bo‘yicha tahlil qilindi. Olingan natijalarga ko‘ra, tangachaqanotli hasharotlarning Jivotovskiy indeksi ($\mu \pm S_{\mu}$) bo‘yicha xilma-xillik ko‘rsatkichlari olmazor bog‘ ($29,3 \pm 0,9$) hamda makajo‘hori entomotsenozlarida ($27,6 \pm 0,88$) yuqori, g‘o‘za ($22,2 \pm 0,8$), olxo‘ri ($18,6 \pm 0,96$), nok ($18,5 \pm 1,05$) va beda ($16,2 \pm 0,68$) entomotsenozlarida o‘rta, gilos ($14,5 \pm 0,9$), karam ($13,4 \pm 0,62$), pomidor ($13 \pm 0,73$), bug‘doy ($10,2 \pm 0,57$) entomotsenozlarida quyi pog‘onadan o‘rin egallagan. Mazkur agrobiotsenozlar tangachaqanotli hasharotlarining Simpson xilma-xillik indeksi bo‘yicha qiyosiy ko‘rsatkichlari (Yevklid masofasi) 3-rasmdagi dendrogrammada tasvirlangan.



3-rasm. Tangachaqanotli hasharotlarning xilma-xillik indeksi dendrogrammasi (Simpson bo‘yicha). Agrobiotsenozlar: 1-gilos; 2-olxo‘ri; 3-olma; 4-nok; 5-bug‘doy; 6-makkajo‘xori; 7-beda; 8-g‘o‘za; 9-pomidor; 10-karam.

Dissertatsiya ishining to‘rtinchi bobi “Tangachaqanotli hasharotlarning zoogeografik tahlili va tarqalish areallari” deb nomlangan bo‘lib, unda

tangachaqanotli hasharotlar faunasining zoogeografik tahlili, shu jumladan, Farg‘ona vodiysining zoogeografik hududlari va agrolandschaft yaruslari bo‘yicha taqsimlanish xususiyatlari, tangachaqanotli hasharotlar arealining kengayib borishida muhit omillarining ahamiyati, shuningdek, global iqlim o‘zgarishlari sharoitida tangachaqanotli hasharotlarning tarqalish xususiyatlari bayon etilgan. Hudud agroekotizimlaridan yig‘ilgan tangachaqanotli hasharotlar 25 oilasini 116 avlodga mansub 158 turlari tarqalish arealining zoogeografik tahlillariga asosan 13 ta guruhga ajratildi. Olingan natijalarga ko‘ra, 6 ta oila 6 ta avlodga mansub 11 ta tur kosmopolit tarqalish arealiga ega bo‘lib, jami lepidopterofaunaning 7% ni tashkil etadi. Tangachaqanotlilarning 98 ta (62%) turi Palearktika zoogeografik oblastida tarqalgan. Ushbu turlarning 58 tasi (36,7%) Palearktikaning barcha hududlari bo‘ylab tarqalgan bo‘lsa, 17 ta (10,8%) tur faqat G‘arbiy Palearktikada uchraydi. Palearktikaning Qadimgi O‘rta Yer mintaqasi bo‘ylab tarqalgan turlar soni 12 ta (7,6%), shuningdek, faqat O‘rta Yer dengizi hududida uchraydigan turlar 5 ta, Markaziy Osiyo hududida uchraydigan turlar soni 6 tani, faunadagi ulushi esa mos ravishda 3,2% hamda 3,8% ni tashkil etadi (4-rasm).



4-rasm. Tangachaqanotli hasharotlarni zoogeografik areallar bo‘yicha taqsimlanishi

Farg‘ona vodiysi Palearktika zoogeografik o‘lkasini O‘rta Dengiz zoogeografik o‘lkachasi, Turon-Qozog‘iston tekislik provintsiyasi, Sirdaryo vodiyyohasi okrugining Farg‘ona vodiyyohasi okrugchasida joylashgan. O‘z navbatida ushbu okrugcha, chegaralari Sirdaryo va Qoradaryo bo‘ylab o‘tadigan Vodiy tog‘ etak o‘ng qirg‘og‘i hamda Vodiy tog‘ etak chap qirg‘og‘i uchastkalariga, shuningdek, Markaziy Farg‘ona hududida joylashgan Qum orolli Yozyovon uchastkasiga bo‘lingan. Farg‘ona vodiysi zoogeografik hududlarining tangachaqanotlilar faunasini o‘rganish natijalariga ko‘ra, eng ko‘p turlar (97,5%) vodiyy tog‘ etak chap qirg‘og‘ida tarqalgan. Xususan, ushbu zoogeografik uchastka

hududidagi agrotsenozlarda 154 ta tur tangachaqaqanotlilar qayd etildi. Vodiy tog' etak o'ng qirg'og'ida esa 142 ta (89,9%) turlar uchrashligi aniqlandi. Tur soni qum orolli Yozyovon zoogeografik uchastkasida eng kam bo'lib, 85 ta (53,8%) turdan iborat. Vodiy tog' etak o'ng qirg'og'i bilan vodiy tog' etak chap qirg'og'i zoogeografik hududlari faunasining o'xshashlik darajasi Jakkar koefitsiyenti (K_J) bo'yicha 89%, Sorensen koefitsiyenti (K_S) bo'yicha 94% ni tashkil etadi. Vodiy tog' etak o'ng qirg'og'i bilan Qum orolli Yozyovon zoogeografik hududlari o'rtasidagi o'xshashlik mos ravishda 57% hamda 72%, Vodiy tog' etak chap qirg'og'i bilan Qum orolli Yozyovon zoogeografik hududlari o'rtasidagi o'xshashlik esa, mos ravishda 54% hamda 70% ga teng.


Tangachaqaqanotli hasharotlarning agrolandshaft yaruslari bo'yicha taqsimlanish xususiyatlari tadqiqot hududlaridan 2012-2022- yillar davomida yig'ilgan namunalar asosida qiyosiy tahlil etildi. Tadqiqot hududining agrolandshaftlari tabiiy iqlim sharoiti, geomorfologik xususiyatlari va madaniy senozlari tarkibiga ko'ra 5 ta asosiy hamda 2 ta kichik yaruslarga ajratildi (5-rasm).



5-rasm. Agrolandshaft yaruslari xaritasi.

Izoh: 1- quyi yarus; 2-o'rta quyi yarus (2.1-Markaziy Farg'ona); 3-o'rta yarus (3.1-ekoton hudud); 4, 5-baland yarus (4-So'x tumani, 5-Shohimardon).

Tangachaqaqanotli hasharotlarni agrolandshaft yaruslari bo'yicha taqsimlanishiga ko'ra, turlar soni quyi yarus – o'rta quyi yarus – o'rta yarus ketma-ketligida ortib boradi va o'rta yarusning adir hamda tog' ekotizimlari o'zaro tutashuv chiziqlari bo'ylab shakllangan ekoton hududlarda eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'ladi. Baland yaruslar tomon esa, aksincha, ushbu ko'rsatkichlar keskin kamayib boradi. Jumladan, baland yaruslarda joylashgan So'x hamda Shohimardon agrolandshaftlarida qayd etilgan turlar soni boshqa yaruslarga nisbatan kamligi bilan ajralib turadi (6-rasm).



6-rasm. Tangachaqaqnotlilarni agrolandshaft yaruslari bo'yicha taqsimlanishi

Tadqiqot hududi agrolandshaft yaruslari tangachaqaqnotli hasharotlar faunasining o'xshashlik darajalari Jakkar koeffitsiyenti (K_j) bo'yicha qiyosiy tahlil etildi (1-jadval).

1-jadval

Farg'ona vodiysi tangachaqaqnotli hasharotlar faunasining agrolandshaft yaruslari bo'yicha o'xshashlik darajalari

(Jakkar koeffitsiyenti chapda hamda o'xshashlik darajasi (% da) o'ngda)

	Quyi yarus	O'rta quyi yarus	Markaziy Farg'ona	O'rta yarus	Ekoton hudud	Baland yarus
Quyi yarus	1	86%	84%	70%	59%	43%
O'rta quyi yarus	0,864	1	91%	72%	72%	40%
Markaziy Farg'ona	0,841	0,913	1	65%	54%	38%
O'rta yarus	0,704	0,72	0,651	1	81%	48%
Ekoton hudud	0,594	0,716	0,538	0,811	1	58%
Baland yarus	0,429	0,399	0,380	0,478	0,577	1


Xavfli zararkunandalar – tut parvonasi (*Glyphodes pyloalis*) hamda Sharq mevaho'ri (*Grapholita molesta*) misolida tangachaqaqnotli hasharotlar arealining kengayib borishida muhit omillarining ahamiyati tahlil etildi. Keyingi 20 yildan ortiq davr mobaynida tut parvonasining Farg'ona vodiysida tarqalishini o'rganishga oid tadqiqotlarimiz natijalaridan ma'lum bo'ladiki, zararkunanda arealini kengayib borishida antropogen, shamol, ozuqa o'simligi hamda harorat omillari ahamiyatga ega bo'lgan. Ta'kidlangan omillar qatorida vodiyning sharqiga tomon esadigan shamollar tut parvonasining tarqalishida alohida o'rin tutadi.

Jumladan, 2001-yil mavsumida tut parvonasi tarqalish o'chog'idan vodiyning shimoliga tomon 73 km masofaga (Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani) tarqalgan bo'lsa, sharqiy chegara hududlarga tomon (Andijon viloyati Qo'rg'on tepa tumani) 127 km masofaga qadar tarqalib boradi. 1997-2001-yillar davomida tut parvonasining yillik o'rtacha tarqalish tezligi Farg'ona vodiysining sharqiy hududlariga tomon 25,4 km ni tashkil etgan bo'lsa, shimolga tomon bu ko'rsatkich 14,6 km, janubiy sarhadlarga tomon esa, 7,8 km ga teng bo'lgan. Bu borada 2019-yil mavsumida kuzatilgan holat ham, yuqoridagi fikrlarni to'liq tasdiqlaydi. Jumladan, ushbu mavsumda Farg'ona viloyatining Uchko'priq tumanidagi olmazor bog'larda olib borgan tadqiqotlarimizda maxsus chiroqlar yordamida yoritilgan matoga uchib kelgan Sharq mevaho'rining (*G. molesta*) kapalaklariga tarkibida nur qaytaruvchi fosfor bo'lgan quruq oq rangli bo'yoq sepilib, ushbu nuqtadan boshlab turli masofalarda joylashtirilgan chiroqlarga uchib borgan kapalaklar qayd qilib borildi. Tadqiqotlar natijasida, kapalaklar tuxum qo'yish davrida bog' hududida 200-300 metrgacha masofaga uchib borishi, shuningdek, shamol yo'nalishi bo'ylab bir kechada 2-5 km ga qadar tarqalishi mumkinligi aniqlandi (Oqsuv qishlog'i, 27.07-18.10.2019).

Global iqlim o'zgarishlari sharoitida Farg'ona vodiysi agroekotizimlarida sodir bo'layotgan jarayonlar, shu jumladan, mavsumiy ob-havo sharoitlarining beqaror o'zgarishlarini tangachaqanotli hasharotlarning tarqalishiga ta'siri tut parvonasi (*G. pyralis*) misolida izohlab berildi. Tadqiqot hududining so'nggi 50 yil davomidagi iqlim ko'rsatkichlari o'zgarishlarini Farg'ona gidrometeorologiya markazining ma'lumotlari asosida tahlil qilganimizda, 1971-2000 hamda 2001-2022-yillar oralig'idagi o'rtacha havo haroratlarining farqi +1,1 °C ni tashkil etdi.

Shuningdek, Farg'ona viloyatida 2001-2022-yillar davomida kuzatilgan o'rtacha oylik harorat ko'rsatkichlarining o'zgarishlari ham statistik tahlil qilindi. Natijalardan ma'lum bo'lishicha, so'nggi 22 yil davomida minimal hamda maksimal harorat ko'rsatkichlarini keskin tebranishlari bilan bog'liq iqlimiy anomaliyalar soni ortib borgan. Natijada, mavsumiy ob-havo sharoitlarining beqaror o'zgarishlari tangachaqanotli hasharotlarning tarqalishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Xususan, Farg'ona vodiysining tutzorlarida keyingi 20 yildan ortiq vaqt davomida olib borgan tadqiqotlarimizda ekologik omillarning mavsumiy o'zgarishiga bog'liq holda tut parvonasi miqdor zichligi sur'atlarining tebranishlari kuzatildi. Vodiya qish oylarining nisbatan iliq va quruq kelishi kelasi mavsumda tut parvonasi miqdor zichligi sur'atlarini yuqori ko'rsatkichga ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Masalan, 2001, 2002, 2004, 2005, 2006, 2007, 2010, 2011, 2018, 2019, 2020-yillar mavsumlari qulay ob-havo sharoitida Farg'ona vodiysida tut parvonasining tarqalishi eng xavfli ko'rinishni hosil qildi. Vodiyning Markaziy Farg'ona hamda g'arbiy hududlaridagi bir qator tumanlarda tutzorlarning yoppasiga zararlanish holatlari sodir bo'ldi. Ta'kidlangan holatlardan farqliroq 2002, 2008, 2014-yillarning qish oylarida hamda 2015, 2021-yilning bahor oylarida kuzatilgan keskin sovuq havo keyingi mavsumda tut parvonasi miqdor zichligini sezilarli darajada past bo'lishiga sabab bo'ldi. Shunga qaramasdan, tut parvonasining barqaror tarqalish o'choqlari Markaziy Farg'ona va g'arbiy


mintaqalarda saqlanib qoldi. Yuqoridagi holatlardan farqli ravishda, 2022-yilning yoz mavsumida havo haroratini oʻrtacha koʻp yillik qiymatlardan bir necha gradusga yuqori hamda davomli boʻlishi bilan bogʻliq anomal holat kuzatildi. Fargʻona vodiysining sharqida 22-26 iyul kunlari $+40-41^{\circ}\text{C}$ dan yuqori, janubida 21-26 iyul kunlari $+41-42^{\circ}\text{C}$, gʻarbiy hududlarda 26-28 iyunda $+41^{\circ}\text{C}$ atrofida, 21-27 iyul kunlari $+41-43^{\circ}\text{C}$ yuqori harorat qayd etildi. Markaziy Fargʻona mintaqasida iyun oyining oxirgi haftasida $+41^{\circ}\text{C}$ dan yuqori, iyul oyining oxirgi oʻn kunligi davomida esa, $+42-44^{\circ}\text{C}$ harorat qayd etildi. Ushbu mavsumda kuzatilgan holat, quruq iqlim sharoiti hamda maksimal haroratli kunlarning davomli taʼsiri cheklovchi omil sifatida tut parvonasining tarqalishi va rivojlanish surʼatiga jiddiy taʼsir qilishi mumkinligini koʻrsatdi. Jumladan, shu vaqtga qadar Fargʻona vodiysida barqaror tarqalish oʻchoqlari hisoblangan Markaziy Fargʻona va gʻarbiy hududlarda 2022-yilning kuz mavsumi oxiriga qadar ham tut parvonasining miqdor zichligi past darajada, tut daraxtlarining zararlanishi esa, sezilarsiz holatda saqlanib turdi. Ushbu mavsumda tut parvonasining nisbatan barqaror tarqalish oʻchoqlari vodiyni shimoliy, sharqiy hamda janubiy mintaqalari boʻylab adir va togʻ oldi hududlarda shakllandi (7-rasm).




7-rasm. Tut parvonasini Fargʻona vodiysida tarqalishi (2022-yil)

Dissertatsiya ishining beshinchi bobi “**Tangachaqaqnotli hasharotlarining bioekologik xususiyatlari**” ga bagʻishlangan boʻlib, uchta boʻlimdan iborat. Birinchi boʻlimda tangachaqaqnotli hasharotlarning rivojlanish sikllari va fenologik xususiyatlari ochib berilgan. Olib borilgan tadqiqotlar va tahlillar natijasiga koʻra, Fargʻona vodiysi agroekotizimlarida tarqalgan tangachaqaqnotli hasharotlarning 66 ta (41,8%) turi polivoltin, 54 ta (34,2%) turi bivoltin, 38 ta (24%) turi monovoltin hayot sikliga ega. Tangachaqaqnotli hasharotlarning imagolik bosqichidagi uchish

davrlariga ko‘ra bahorgi-yozgi-kuzgi fenologik guruhga kiruvchi turlar soni (83 ta) va ulushi (52,5%) nisbatan yuqoriligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, 6 ta (3,8%) tur bahorgi, 13 ta (8,2%) yozgi, 40 ta (25,3%) bahorgi-yozgi, 1 ta (0,6%) kuzgi, 15 ta (25,3%) tur yozgi-kuzgi fenologik guruhga mansub. Qishlash xususiyatlariga ko‘ra, 78 ta (49,4%) tur qurtlik bosqichida, 44 ta (27,8%) tur g‘umbak, 18 ta (11,4%) tur tuxum, 2 ta (1,3%) tur kapalak, 5 ta (3,2%) tur qurt hamda g‘umbalik bosqichlarida, 3 ta (1,9%) tur g‘umbak hamda kapalak bosqichlarida, 1 ta (0,6%) tur esa tuxum, g‘umbak va kapalak bosqichlarida qishlaydi (8-rasm).




8-rasm. Tangachaqanotli hasharotlarning hayot sikli (A), imagolarining faollik davri (B) va qishlash xususiyatlariga(C) ko‘ra rivojlanish xususiyatlari



9-rasm. Tangachaqanotli hasharotlar qurtlarini ozuqaga ixtisoslashuvining kenglik darajasi (A) hamda o‘simliklarning hayotiy shakllari bilan aloqasiga ko‘ra (B) taqsimlanishi

